HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI	
BAHOLASH: KOGNITIV VA EKONOMETRIK MODELASHTIRISH YONDASHUVI.....	976
Madaminov Sardorbek Qadamovich	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI SEGMENTLASH ORQALI	
MOLIYALASHTIRISH MODEL.....	981
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONLARINI BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA	
OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASHDA TAHLIL METODOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI	986
Saidova Dilfuza Abdufattohova	
O'ZBEKISTONDA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI RIVOJLANISHI VA ALOQA	
KORXONALARI MOLIYAVIY FAOLIYATINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	995
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH	
MANBALARI	1002
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH KONTEKSTIDA TIJORAT FAOLIYATI BILAN	
SHUG'ULLANADIGAN VA RAQOBAT RIVOJLANGAN SOHALARDA DAVLAT MUASSASALARINI	
ISLOH QILISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	1006
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANI O'RGANISH VA O'ZBEKISTON	
SHAROITIDA QO'LLASH TAMOIYILLARI	1013
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
JIZZAX VILOYATIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI	
VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI IQTISODIY TAHLILI	1018
Saloxitdinov Sherzod Farxodovich	
STRATEGIK TARMOQLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR, INNOVATSION	
TEXNOLOGIYALAR VA JAHON TAJRIBASI.....	1024
Xushboqova Kamola Rustam qizi, Dilfuza Xamzayeva	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH	1029
Zaripova Sayohat Zafarovna	
INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY:	
CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	1034
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Sarvarbek Allayev Erkin ugli, Shavkat Asrolovich Ruziev	
YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY MADANIYATNING RIVOJLANISHI.....	1041
Qodirova Shahodat G'aybullayevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA SHARIAT TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN BANKLAR FAOLIYATINI	
TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI ("TRASTBANK" XAB MISOLIDA)	1048
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MEXANIZMLARI	
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	1055
Gulyamov Ulug'bek G'afurovich	
BUDJET TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI	
PROGNOZLASHTIRISHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	1059
Babayev Shavkat Bayramovich	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH	
MASALALARI	1067
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	



BOJXONA YIG'IMLARINING UNDIRILISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	1072
Jurayev Jonibek Javliyevich	
DAVLAT MOLIVASINI RAQAMLASHTIRISH VA FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	1078
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO BAHOLASH.....	1083
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	1088
Avazbek Jo'rayev	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	1094
Umarova Lola Erkinovna	
REMOTE PREVENTION AND CORRECTION OF SPINAL DISORDERS IN OFFICE WORKERS VIA TELEGRAM BOT: RESULTS OF A PILOT STUDY.....	1101
David Kalendarev	
MODERN APPROACHES TO IMPROVING MANAGEMENT ACCOUNTING IN COMMERCIAL BANKS.....	1107
Soatov Farhod Komiljon oglu	
O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV MA'LUMOTLAR ASOSIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	1115
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
DAVLAT XARIDLARIDA RAQAMLI NAZORAT VA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKI.....	1121
Abdullaeva Nigora Kilichbekovna	



DAVLAT XARIDLARIDA RAQAMLI NAZORAT VA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKI



Abdullaeva Nigora Kilichbekovna

«O'zenergosotish» aksiyadorlik jamiyati
Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
abdullaevanigora714@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola davlat xaridlarida raqamli nazorat va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi, ularning shaffoflik, samaradorlik va korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda an'anaviy va raqamli xarid tizimlari qiyoslanib, AI texnologiyalarining qaror qabul qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va monitoring jarayonlaridagi roli yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, raqamli nazorat, sun'iy intellekt, elektron tizim, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, raqamli iqtisodiyot, tender jarayonlari, innovatsiya, davlat boshqaruvi.

Abstract. This article analyzes the implementation of digital control and artificial intelligence technologies in public procurement systems and their role in ensuring transparency, efficiency, and anti-corruption measures. The study provides a comparative analysis of traditional and digital procurement systems and highlights the importance of AI technologies in decision-making, data analysis, and monitoring processes. It also discusses existing challenges and offers scientifically grounded recommendations for improvement.

Key words: public procurement, digital control, artificial intelligence, electronic system, transparency, anti-corruption, automation, data analysis, digital economy, tender processes, innovation, public administration.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу внедрения цифрового контроля и технологий искусственного интеллекта в систему государственных закупок, а также их роли в обеспечении прозрачности, эффективности и борьбе с коррупцией. В исследовании проводится сравнительный анализ традиционной и цифровой систем закупок, раскрывается значение технологий ИИ в процессах принятия решений, анализа данных и мониторинга. Также рассматриваются существующие проблемы и предлагаются научно обоснованные рекомендации по их решению.

Ключевые слова: государственные закупки, цифровой контроль, искусственный интеллект, электронная система, прозрачность, борьба с коррупцией, автоматизация, анализ данных, цифровая экономика, тендерные процессы, инновации, государственное управление.

KIRISH

Hozirgi kunda jahonda kechayotgan jadal raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvining barcha sohaları qatori davlat xaridlari tizimiga ham tub o'zgarishlar kiritmoqda. Davlat xaridlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlat byudjeti mablag'larining samarali sarflanishi, raqobat muhitini ta'minlash va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur sohada shaffoflikni oshirish, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.



An'anaviy davlat xaridlari tizimida inson omilining yuqoriligi, hujjat aylanmasining murakkabligi, ma'lumotlarni tahlil qilishdagi cheklangan imkoniyatlar va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi kabi muammolar mavjud edi. Bu esa ayrim holatlarda byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, tender jarayonlarida adolat tamoyilining buzilishi hamda korrupsiyaviy holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan raqamli nazorat tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi mazkur muammolarni bartaraf etishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli nazorat davlat xaridlari jarayonlarini elektron platformalar orqali kuzatish, monitoring qilish va tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Sun'iy intellekt esa katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, xavfli operatsiyalarni aniqlash, narxlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mashinali o'qitish va intellektual algoritmlar orqali tender jarayonlaridagi shubhali holatlarni erta aniqlash imkoniyati davlat xaridlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Hozirda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridlarini raqamlashtirish orqali byudjet xarajatlarini qisqartirish, vaqt tejash va davlat xizmatlarining sifatini yaxshilash bo'yicha ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekistonda ham "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida davlat xaridlarini elektron shaklga o'tkazish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va intellektual tahlil vositalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etish masalasi xalqaro ilmiy doiralarda keng tadqiq etilmoqda. Mazkur sohadagi ilmiy yondashuvlar asosan shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyani kamaytirish, ma'lumotlar tahlilini avtomatlashtirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan.

Davlat xaridlari sohasidagi mashhur olimlardan biri Christopher Yukins (2010; 2017) elektron davlat xaridlarini "davlat mablag'laridan foydalanish jarayonlarini ochiq va raqobatbardosh tizimga aylantiruvchi muhim raqamli mexanizm" sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, elektron tender platformalari orqali "inson omilining kamayishi korrupsiya xavfini sezilarli darajada pasaytiradi".

Shuningdek, Steven Schooner (2008) davlat xaridlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytirishini ta'kidlab, "raqamli xarid tizimi davlat va jamoatchilik o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi vosita" ekanligini qayd etgan.

Sun'iy intellekt sohasidagi yetakchi tadqiqotchilardan Stuart Russell (2021) sun'iy intellektni "inson tafakkuriga xos tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarini kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish texnologiyasi" deb baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, davlat boshqaruvida AI texnologiyalaridan foydalanish katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Henry Adobor va Robert Yawson (2023) sun'iy intellektning davlat xaridlaridagi ahamiyatini tahlil qilib, AI "korrupsiyaga qarshi kurashda qo'shimcha analitik vosita sifatida xizmat qiladi va davlat nazoratini kuchaytiradi" deb ta'kidlaydi (Adobor & Yawson, 2023).

Albert Sánchez-Graells (2021) esa davlat xaridlarida sun'iy intellektni qo'llashda ehtiyotkorlik zarurligini ta'kidlab, "AI tizimlari samaradorlikni oshirsa-da, ularning algoritmik xato va adolat muammolari yuzaga keltirishi mumkin" degan fikrni ilgari suradi (Sánchez-Graells, 2021).

Marcos S. Lyra va hammualliflar (2022) davlat xaridlaridagi firibgarlikni tahlil qilib, mashinali o'qitish asosidagi modellar "shubhali tender operatsiyalarini aniqlashda yuqori samara beradi" deb xulosa qilgan (Lyra et al., 2022).

Tatiana Mokeeva va Ksenia Yurko (2023) raqamli tahlil vositalari orqali davlat xaridlaridagi shubhali operatsiyalarni aniqlash mumkinligini ko'rsatib, "avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari qaror qabul qilish sifatini oshiradi" deb ta'kidlaydi (Mokeeva & Yurko, 2023).

Andrés Aldana va hammualliflar (2022) mashinali o'qitish modellari orqali korrupsiya holatlarini prognoz qilish mumkinligini ko'rsatib, AI "davlat xaridlarida xavfli bitimlarni oldindan aniqlash imkonini beradi" degan xulosaga kelgan (Aldana et al., 2022).

OECD (2023) hisobotida ta'kidlanishicha, sun'iy intellekt davlat xaridlari jarayonlarida "resurslardan samarali foydalanish va qaror qabul qilishni avtomatlashtirish orqali davlat boshqaruvin zamonaviylashtiradi" hamda risklarni aniqlash imkoniyatini kengaytiradi (OECD, 2023).

World Bank (2023) tahlillariga ko'ra, raqamli davlat xaridlari tizimlari korrupsiya va firibgarlik holatlarini kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi, chunki elektron platformalar "ma'lumotlar shaffofligini ta'minlaydi va inson omilini cheklaydi" (World Bank, 2023).

Mahalliy olimlardan Qodirjon Bakhromov (2021) davlat xaridlarini raqamlashtirish masalasini tahlil qilib, "elektron davlat xaridlari byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy shaffoflikni



ta'minlashning muhim mexanizmi" ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, raqamli platformalar orqali davlat xaridlarini amalga oshirish inson omilini qisqartirib, korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi.

Shavkat Ayupov (2020) sun'iy intellekt texnologiyalarini raqamli iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, "sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkoniyatini yaratadi". Bu fikr davlat xaridlarida intellektual tahlil tizimlarining ahamiyatini ochib beradi.

Abduvali Vahobov (2019) davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflik masalasiga alohida to'xtalib, "davlat xaridlarining raqamlashtirilishi davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirish bilan birga jamoatchilik nazoratini ham kuchaytiradi" deb qayd etadi. Olim elektron tender tizimlari raqobat muhitini rivojlantirishini ham ta'kidlaydi.

Sodiq Safayev (2022) raqamli transformatsiya jarayonlarini davlat boshqaruvining yangi bosqichi sifatida baholab, "raqamli davlat boshqaruvi davlat xizmatlarining tezkorligi va aniqligini ta'minlaydi" degan fikrni ilgari suradi. Uning qarashicha, davlat xaridlariga AI texnologiyalarini joriy etish strategik boshqaruv sifatini oshiradi.

Rustam Davletov (2021) elektron davlat xaridlari tizimining huquqiy jihatlarini tahlil qilib, "raqamli davlat xaridlari tizimida huquqiy kafolatlar va axborot xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi" deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Mamarizo Nurmuratov (2020) raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyasini boshqarish samaradorligini o'rganib, "raqamli nazorat mexanizmlari davlat xarajatlarining maqsadli va manzilli sarflanishini ta'minlaydi" degan xulosaga kelgan. Olim davlat xaridlarida avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari byudjet intizomini mustahkamlashini ta'kidlaydi.

Dilshod Tashmukhamedov (2023) sun'iy intellektni davlat xizmatlariga joriy etish masalalarini tadqiq qilib, "AI texnologiyalari orqali davlat tizimlarida prognozlash va xavflarni erta aniqlash imkoniyatlari kengayadi" deb qayd etadi. Bu yondashuv davlat xaridlarida shubhali tender jarayonlarini monitoring qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Botir Usmonov (2022) raqamli nazorat mexanizmlarini korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, "elektron monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari davlat xaridlarida shaffoflikni kuchaytirib, korrupsiya xavfini kamaytiradi". Olim raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvida hisobdorlik darajasini oshirishini ham ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada davlat xaridlarida raqamli nazorat va sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishini tahlil qilishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Nazariy tahlil orqali davlat xaridlari sohasida raqamlashtirish va sun'iy intellektga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali an'anaviy va raqamli davlat xaridlari tizimlari o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Tizimli yondashuv esa davlat xaridlari jarayonlarini yagona raqamli ekotizim sifatida baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlari tizimi davlat moliyaviy siyosatining muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Davlat byudjeti mablag'larining katta qismi aynan davlat xaridlari orqali sarflanishi mazkur sohada shaffoflik, samaradorlik va hisobdorlikni ta'minlashni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat xaridlari tizimida ham tub institutsional o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, raqamli nazorat mexanizmlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi davlat boshqaruvida yangi innovatsion yondashuvlarni shakllantirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy davlat xaridlari tizimida ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni ko'p vaqt talab qilgan, hujjat aylanmasi asosan qog'oz shaklida amalga oshirilgan va nazorat jarayonlarida inson omili ustun bo'lgan. Bu esa ayrim holatlarda tender jarayonlarida subyektiv qarorlar qabul qilinishi, korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishi va davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, xarid jarayonlarida ma'lumotlar bazasining yagona tizimga integratsiya qilinmagani davlat nazoratini murakkablashtirgan.

Raqamli davlat xaridlari platformalarining joriy etilishi mazkur muammolarni bartaraf etishga xizmat qildi. Elektron platformalar orqali davlat buyurtmachilari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi munosabatlar avtomatlashtirildi, tender ma'lumotlari ochiq elektron bazaga joylashtirildi va real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratildi. Bu esa davlat xaridlarida ochiqlik darajasini sezilarli oshirdi.

Quyidagi 1-jadvalda an'anaviy va raqamli davlat xaridlari tizimlarining asosiy farqlari hamda ularning boshqaruv samaradorligiga ta'siri keltirilgan (1-jadval).



1-jadval. An'anaviy va raqamli davlat xaridlari tizimining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkichlar	An'anaviy davlat xaridlari	Raqamli davlat xaridlari
Hujjat aylanmasi	Qog'oz shaklida	Elektron shaklda
Ma'lumot saqlash	Arxiv va mahalliy baza	Yagona elektron baza
Nazorat jarayoni	Qo'lda tekshirish	Avtomatlashtirilgan monitoring
Axborotga kirish	Cheklangan	Ochiq va tezkor
Qaror qabul qilish	Inson omili asosida	Analitik ma'lumotlar asosida
Tender jarayoni	Uzoq vaqt talab qiladi	Tezkor amalga oshiriladi
Korrupsiya xavfi	Yuqori	Nisbatan past
Xarajatlar	Yuqori ma'muriy xarajat	Resurs tejamliligi
Jamoatchilik nazorati	Kam	Kuchli
Samaradorlik	Nisbatan past	Yuqori

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli davlat xaridlari tizimi davlat boshqaruvida institutsional samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, elektron ma'lumotlar bazasi va avtomatlashtirilgan monitoring tizimi orqali davlat xaridlarining barcha bosqichlarini kuzatish imkoniyati korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining davlat xaridlaridagi ishtiroki raqamli transformatsiya jarayonlarining yangi bosqichini boshlab berdi. AI texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Davlat xaridlari sohasida bu texnologiyalar asosan tender jarayonlaridagi xavflarni aniqlash, narxlarni tahlil qilish, shubhali operatsiyalarni monitoring qilish va resurslarni optimal taqsimlash vazifalarini bajarmoqda.

Xususan, mashinali o'qitish algoritmlari orqali ma'lumotlar bazasidagi yashirin qonuniyatlar tahlil qilinib, korrupsiyaviy sxemalarni aniqlash imkoniyati paydo bo'lmoqda. Masalan, bir xil kompaniyalarning doimiy g'olib bo'lishi, narxlarning sun'iy oshirilishi yoki tender ishtirokchilari o'rtasidagi bog'liqlik kabi holatlar AI orqali tezkor aniqlanishi mumkin. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishiga olib kelmoqda.

2-jadvalda davlat xaridlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilish yo'nalishlari va ularning amaliy natijalari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Davlat xaridlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining vazifalari va natijalari

AI texnologiyalari	Qo'llanilish sohasi	Amaliy ahamiyati	Kutilayotgan natija
Machine Learning	Tender ma'lumotlarini tahlil qilish	Shubhali operatsiyalarni aniqlash	Korrupsiya xavfini kamaytirish
Big Data Analytics	Katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili	Tezkor ma'lumot qayta ishlash	Qaror qabul qilish sifatini oshirish
Predictive Analytics	Xavflarni prognozlash	Risklarni oldindan baholash	Moliyaviy barqarorlik
NLP texnologiyalari	Elektron hujjatlarni tahlil qilish	Avtomatik tekshiruv	Vaqt tejash
AI Monitoring Systems	Doimiy raqamli nazorat	Real vaqt tahlili	Samarali monitoring
Chatbot va virtual yordamchilar	Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish	Axborot berish jarayonini tezlashtirish	Davlat xizmatlari sifatini oshirish
Blockchain integratsiyasi	Ma'lumotlar xavfsizligi	O'zgarmas raqamli yozuv	Ishonchli elektron baza

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt davlat xaridlarining turli bosqichlarida keng qo'llanilmoqda. Bu esa davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning strategik ahamiyati oshib borayotganini anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli nazorat va AI texnologiyalarining davlat xaridlariga joriy qilinishi quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlaydi:

- davlat byudjeti mablag'larining maqsadli sarflanishi;
- tender jarayonlarining shaffofligi oshishi;
- korrupsiyaviy xavflarning qisqarishi;
- inson xatolarining kamayishi;
- ma'lumotlarni qayta ishlash tezligining ortishi;



- jamoatchilik nazoratining kuchayishi;
- raqobat muhitining rivojlanishi;
- davlat xizmatlari sifatining yaxshilanishi.

Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarning amaliyotga joriy qilinishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Birinchi navbatda, kiberxavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat xaridlari ma'lumotlar bazasida katta hajmdagi moliyaviy va huquqiy ma'lumotlar saqlangani sababli axborot xavfsizligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Ikkinchidan, AI algoritmlarining xolisligi va adolatli ishlashi ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Noto'g'ri o'qitilgan algoritmlar ayrim qarorlarda xatolarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani va yuqori malakali IT mutaxassislar yetishmasligi ham raqamli davlat xaridlari tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli davlat xaridlari sohasida raqamli kadrlar tayyorlash, AI texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarni ko'paytirish va huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, davlat xaridlarida raqamli nazorat va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi davlat boshqaruvining yangi innovatsion modeli shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu texnologiyalar davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, AI texnologiyalarini milliy davlat boshqaruvi tizimiga chuqur integratsiya qilish va kiberxavfsizlikni mustahkamlash davlat xaridlari tizimining yanada samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat xaridlarida raqamli nazorat va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi zamonaviy davlat boshqaruvini transformatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish jarayoni davlat xaridlari tizimining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy xarid mexanizmidagi mavjud bo'lgan inson omiliga bog'liq xatolar, byurokratik to'siqlar va korrupsiyaviy xavflar raqamli platformalar hamda sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar orqali qisqarmoqda.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- davlat xaridlari tizimida yagona integratsiyalashgan raqamli platformalarni yanada takomillashtirish;
- sun'iy intellekt asosida avtomatik monitoring va risklarni baholash tizimlarini keng joriy etish;
- kiberxavfsizlikni kuchaytirish uchun zamonaviy axborot muhofazasi standartlarini joriy qilish;
- davlat xaridlari sohasi uchun malakali IT va AI mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- algoritmlar shaffofligi va adolatli ishlashini ta'minlash uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash;
- ochiq ma'lumotlar siyosati orqali jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish.

Demak, raqamli nazorat va sun'iy intellekt texnologiyalari davlat xaridlari tizimini tubdan modernizatsiya qilish imkoniyatini beruvchi muhim innovatsion vositalardir. Ularning samarali joriy etilishi davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, korrupsiyani qisqartirish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish orqali to'liq avtomatlashtirilgan, intellektual va ochiq davlat xaridlari tizimini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adobor, H., & Yawson, R. (2023). AI and public procurement corruption frameworks. *Science and Public Policy*. <https://doi.org/10.1093/scipol/scac068>.
2. Aldana, A. et al. (2022). Machine learning model for corruption detection in procurement. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2211.01478>.
3. Aldana, A. et al. (2022). Machine learning model for corruption detection in procurement. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2211.01478>.
4. Ayupov, Sh.A. (2020). Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot: rivojlanish istiqbollari. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi axborotnomasi*, 4(2), 15–22. <https://academy.uz>.
5. Bakhromov, Q. (2021). O'zbekistonda davlat xaridlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, 5(3), 112–120. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal>.
6. Christopher Yukins Yukins, C. R. (2010). *A Versatile Prism: Assessing Procurement Law Through the Principal-Agent Model*. *Public Contract Law Journal*, 40(1), 63–86. <https://ssrn.com/abstract=1776295>.
7. Christopher Yukins Yukins, C. R. (2017). *The U.S. Federal Procurement System: An Introduction*. *Upphandlingsrättslig Tidskrift*, 69–94. SSRN. <https://ssrn.com/abstract=3063559>.
8. Davletov, R.X. (2021). Elektron davlat xaridlari tizimida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish. *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 3(7), 88–96. <https://tsul.uz>.
9. Lyra, M.S. et al. (2022). Fraud detection in public procurement using data-driven methods. *Applied Network Science*. <https://doi.org/10.1007/s41109-022-00523-6>.



10. Mokeeva, T., & Yurko, K. (2023). Detecting suspicious procurement using digital tools. International Journal of Technology. <https://doi.org/10.14716/ijtech.v14i8.6851>.
11. Mokeeva, T., & Yurko, K. (2023). Detecting suspicious procurement using digital tools. International Journal of Technology. <https://doi.org/10.14716/ijtech.v14i8.6851>.
12. Nurmuratov, M. (2020). Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyasini boshqarish samaradorligi. Iqtisodiy tahlil jurnali, 8(2), 61–70. <https://review.uz>.
13. OECD. (2023). Governing with Artificial Intelligence: The State of Play and Way Forward. <https://doi.org/10.1787/795de142-en>.
14. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson. <https://www.pearson.com>.
15. Safayev, S.S. (2022). Raqamli transformatsiya sharoitida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish masalalari. Xalqaro munosabatlar va siyosiy tahlil jurnali, 2(4), 30–39. <https://uwed.uz>.
16. Sánchez-Graells, A. (2021). Procurement Corruption and Artificial Intelligence. SSRN. <https://ssrn.com>.
17. Steven Schooner Schooner, S. L., Gordon, D. I., & Clark, J. L. (2008). *Public Procurement Systems: Unpacking Stakeholder Aspirations and Expectations*. SSRN Electronic Journal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.1133234>.
18. Tashmukhamedov, D. (2023). Sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat xizmatlariga joriy etish istiqbollari. Axborot texnologiyalari va boshqaruv masalalari, 1(5), 25–34. <https://tuit.uz>.
19. Usmonov, B. (2022). Davlat xaridlarida korrupsiyaga qarshi raqamli nazorat mexanizmlari. Iqtisod va moliya, 9(6), 74–82. <https://economyfinance.uz>.
20. Vahobov, A.V. (2019). Davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning institutsional asoslari. Moliya va bank ishi ilmiy jurnali, 6(1), 45–53. <https://finance.tsue.uz>.
21. World Bank. (2023). Vulnerabilities of ICT Procurement to Fraud and Corruption. <https://openknowledge.worldbank.org>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
